

SPORT SOHASIDAGI MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHDA “LEX SPORTIVA” TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

MUXTORJON YETMISHBOYEV

o'qituvchi, Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrası, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqola transchegaraviy sport munosabatlarini tartibga solishning eng muhim elementlaridan biri “Lex sportiva”ga bag'ishlangan. Muallif “Lex sportiva” normalarining huquqiy tabiatini va ularning huquq tizimidagi o'rnini o'rganadi, shuningdek, ularni qo'llash bilan bog'liq dolzarb masalalarga to'xtalib, ko'rib chiqilayotgan normalarning rivojlanish istiqbollarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: xalqaro xususiy huquq, sport huquqi, transchegaraviy munosabatlar, Sport arbitraj sudi, CAS, sport arbitraji, “Lex sportiva”, sport qoidalari.

Kirish. Ko'p yillar davomida sport muayyan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimi sifatida jamiyat uyg'unligini saqlashda muhim rol o'ynadi. Shu munosabat bilan sport tuzilishi jihatidan murakkablashib, dunyoda kengayib borayotganligi sababli, sport munosabatlarini huquqiy tartibga solishni o'rganish va takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi. “Sport to'g'risidagi qonunlar paydo bo'lishidan, qolaversa, bu sohadagi huquqiy tizimlash-tirishdan ancha oldin odamlar allaqachon poygada yugurib, to'siqlarni yengib o'tib, bir-birlari bilan raqobatlashayotgan edilar. O'shanda ham sakrash balandligini, yugurish yo'lakchasi uzunligini, musobaqalarni o'tkazish shartlarini belgilovchi qoidalar mavjud edi”.

Xalqaro sport munosabatlarini tartibga solish manbalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, sport huquqining mustaqil tarmog'i bilan bir qatorda “lex sportiva” normalari tizimi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Hozirgi vaqtda butun dunyo olimlari va huquqshunoslari “Lex sportiva” tushunchasiga umumiy ta'rif berishga hali tayyor emaslar, ammo ularning barchasi ushbu huquqiy tushunchaning mavjudligi borasida fikrlar bildirgan. “Lex sportiva” atamasi dastlab Lozannadagi (Shveysariya) Sport arbitraj sudi yoki (bundan keyin – CAS) arbitraj protsedurasi chegaralarida shakllangan sportni tartibga solishning yangi shaklini aniqlash uchun muomalaga kiritgan. Vaqt o'tishi bilan “Lex sportiva”ning tasdiqlanishi CASning sport sohasidagi nufuzli sud organi sifatida tan olinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tez orada “Lex sportiva” standartlarining ma'nosi sezilarli darajada kengaydi, konsepsiyaning ichki yadrosi yanada shakllandi.

O'zbekistonda sport sohasini huquqiy tartibga solish dastlab odat huquqi, mahalliy urf-odat asosida amalga oshirilgan. Turli xil yig'inlar,

xalq sayillarida polvonlar, chavandozlar bellashgan va ularning musobaqalari xalq tomonidan saylangan bakovul (hakam, sudya)lar tomonidan mahalliy odat qoidalariga asosan o'tkazilgan va baholangan. XX asrning boshlariga kelibgina sport sohasida munosabatlar belgilangan qoidalar va mezonlar asosida tartibga solina boshladi. Dastlab stixiyali boshlangan bu qoidalar, keyinchalik turli sport federatsiyalarining nizomlari va reglamentlari darajasigacha ko'tarildi. Aynan shu paytlardan boshlab, futbol, boks va shunga o'xshash ommaviy sport turlari uchun havaskorlik darajasidagi uyushmalar tashkil etilgan bo'lsa, o'tgan asrning oxirlariga kelib ko'plab sport turlari professional ligalar darajasigacha ko'tarildi. O'z navbatida, davlat tomonidan ham sportni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur holatlar-ning barchasi esa “Lex sportiva” shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi

Ta'kidlash lozimki, hozirgi paytda dunyoda “Lex sportiva” qoidalarini uyg'unlashtirish va bir xillashtirish jarayoni kechmoqda. Bunda asosiy etalon sifatida G'arb modeli e'tirof etiladi va jahondagi boshqa davlatlar ham shunga intiladi. Masalan, Xitoy allaqachon sportni boshqarishning G'arbiy modelini o'rnatgan, bu esa sport uyushmalariga boshqaruv va mustaqillikning shaxsiy qoidalarini belgilash imkonini beradi, jumladan, yangi qonunga muvofiq xususiy manbalardan mablag' jalb qilish imkoniyatini beradi.

Sportning tabiati maxsus sport qoidalarini talab qiladi, ular qayerda va qachon bo'lmasin, odatdagi huquq normalari mazmunini o'z ichiga olishi kerak. Gap shundaki, qonun sportdagi ichki munosabatlar doirasini belgilay olmaydi, aksincha sport sohasining umumiy qoidalari shaxs huquqlarini himoya qilish va qonuniylik ta'minlash nuqtai nazaridan ta'minlaydi, xolos.

“Lex sportiva” o‘ziga xos qoidalar tizimini o‘rnatar ekan, bu qoidalarining davlat qonunchiligiga nechog‘li mosligini ham e‘tiborga olish talab etiladi. Qolaversa, “Lex sportiva” uchun asosiy mezonlar: halollik, haqqoniylik, shaffoflik va adolat birlamchi o‘ringa ega va muayyan sport musobaqasiga tayinlangan hakam aynan mazkur mezonlardan kelib chiqib masalaga yechim beradi.

Asosiy qism. “Lex sportiva” davlatda amal qiladigan qonunchilikdan tashqarida bo‘lgan, biroq uning asosiy prinsiplari va talablariga zid kelmaydigan, faqat ichki sport munosabatlarini tartibga solishni nazarda tutadigan qoidalar tizimi hisoblanadi.

Bu hodisalar o‘ziga xos milliy huquq tizimlariga murojaat qilmasdan, xalqaro munosabatlarni tartibga solishga qodir avtonom tartibni tashkil etuvchi qoidalar va umumiy tamoyillar tizimining o‘z-o‘zidan yaratilishi bilan ajralib turadi. “Lex sportiva” va “Lex Mercatoria” yumshoq huquq normalari sifatida e‘tirof etiladi, ularning o‘ziga xosligi shundaki, ular, bir tomondan, qonuniy majburiy bo‘lgan xatti-harakatlar qoidalarini o‘z ichiga olmaydi, ikkinchi tomondan, ular ikki yoki undan ortiq harakatlar uchun qo‘llanma bo‘lishi mumkin. Yumshoq huquq tartibga solish funksiyasini bajarishga mo‘ljallangan va u tartibga solishning bir qancha usullari orqali, asta-sekin qattiq qonunga aylanadi.

“Lex sportiva” va “Lex Mercatoria” o‘rtasidagi farq shundaki, “Lex sportiva” norasmiy muloqotda paydo bo‘ladigan odatlarga asoslanmaydi, u sport tashkilotlarining nizomi va qoidalarida mustahkamlangan yozma normalarga asoslanadi. Normalarni shakllantirishning bu xususiyati xulq-atvor qoidalariga ko‘proq aniqlik beradi. Bu CAS arbitrajlarining o‘ziga xos tamoyillarga murojaat qilishiga to‘sqinlik qilmaydi. Ular ba‘zan sport tashkilotlari reglamentining umumiy qoidalaridan ajratib ko‘rsatadilar yoki sport musobaqalarining asosiy talablari va oliy manfaatlarining ifodasi sifatida mustaqil ravishda shakllantiradilar. Sport tashkilotlari nizomlarida mustahkamlangan normalarni asosiy tamoyillar darajasiga ko‘tarish jarayonini to‘g‘ri tanlashning ma‘lum bir usulini ta‘minlaydi va sport sohasidagi normativ tartibning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro sohada mualliflarning ilmiy ishlariga murojaat qilib, sport huquqida “Lex sportiva”

normalari tushunchasi va huquqiy tabiatining ta‘riflarini qo‘yidagi Yevropa olimlari ta‘kidlagan: Afina universitetining sport huquqi professori D.P. Panagiotopolos, “Lex sportiva” – bu o‘z yuridik organiga ega bo‘lgan huquqiy tartibning maxsus turi bo‘lgan sport me‘yoriy qoidalarini xalqaro sport darajasida qo‘llash tizimi sifatida belgilaydi, CAS, uning maqsadi, qoidalarini himoya qiladi hamda uni qo‘llaydi”. Olim L.V. De Oliveyra o‘z asarlarida CAS qarorlaridan tashqari “Lex sportiva” normalari tizimiga xalqaro sport tashkilotlarining normalari, qoidalari ham kiritilishi kerakligini ta‘kidlaydi, ular asosida hakamlar o‘z qarorlarini qabul qiladilar.

MDH olimlaridan “Lex sportiva” ta‘rifini sport huquqi sohasidagi atoqli olim S.V. Alekseyev bergan: “...bu predmet umumiyliigi va o‘ziga xosligi bilan tavsiflangan o‘zaro bog‘liq normalar tizimidir. Ushbu normalarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi maxsus usullar, tamoyillar va manbalarga ega bo‘lgan, shuningdek, umumiy xalqaro huquq tizimida ma‘lum bir avtonomiyaga ega bo‘lgan xalqaro sport faoliyatini yanada samaraliroq huquqiy tartibga solishdan manfaatdorligi ifodalanadi”. L.I. Zaxarova “Lex sportiva” “Hech bo‘lmaganda Olimpiya harakatining milliy va xalqaro nohukumat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan, sport faoliyatida qatnashish niyatini namoyish qiluvchilar orasida keng e‘tirof etilgan xulq-atvor qoidalari to‘plami” deb hisoblaydi.

Xulosa. “Lex sportiva” qoidalari asosida jismoniy tarbiyaning havaskorlik, professional va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo‘lgan holatlari tartibga solinadi hamda amalga oshiriladi. Bunda havaskorlik sportida qo‘yiladigan jismoniy yuklamalar asosan salomatlik mustahkamlashga qaratilsa, professional sport doimiy ravishda amalga oshiriladigan faoliyat, yuqori natijalar sporti esa, jahon darajasidagi musobaqalarda ishtirok etish va g‘olib bo‘lishga qaratilgan intensiv faoliyat sanaladi. Sport faoliyatining mazkur turlariga nisbatan “Lex sportiva”, ya‘ni “sport huquqi” amal qiladi. O‘ziga xos kompleks soha hisoblangan sport huquqi esa, sport faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi va o‘zini o‘zi tartibga solishning umumiy ko‘rinishi hisoblanadi.

Аннотация. Данная статья посвящена «Lex sportiva», одному из важнейших элементов регулирования трансграничных спортивных отношений. Автор исследует правовую природу норм «Lex sportiva» и их место в правовой системе, а также затрагивает актуальные вопросы, связанные с их применением, и определяет перспективы развития рассматриваемых норм.

Ключевые слова: международное частное право, спортивное право, трансграничные отношения, Спортивный арбитражный суд, CAS, спортивный арбитраж, «Lex sportiva», спортивные правила.

Annotation. This article is devoted to “Lex sportiva”, one of the most important elements of regulation of cross-border sports relations. The author explores the legal nature of the “Lex sportiva” norms and their place in the legal system, and also touches on current issues related to their application, and determines the prospects for the development of the norms in question.

Key words: international private law, sports law, cross-border relations, Court of Arbitration for Sport, CAS, sports arbitration, “Lex sportiva”, sports rules.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jestaz P. (1981) Spectacle sportif et droit du sport // Le spectacle sportif / Publication de la Faculté de Droit et des Sciences Economiques de l'Université de Limoges; Centre de Droit et d'Economie du Sport. – Paris: PUF,;
2. Nafziger J. Lee Wei (2014) China’s Sports Law. American Journal of Comparative Law 1998; XLVI: 467-471. Tang Y. The Concept of Sports Law in China. International Sports Law Rev Pandektis; 10: 442-50;
3. Shevchenko O. The institutional autonomy of sport and the limits of the freedom in the employment relationship. e-Lex Sportiva J (e-LexSJ) 2013; I: 3-21;
4. Panagiotopoulos D. (2013) Sporting jurisdictional order and arbitration. US-China Law Rev; 10: 130-40;
5. Захарова Л.И. (2015) «О спорт, ты – мир!». Роль международного права, lex sportiva и lex olympica в регулировании международных спортивных отношений. 2-е изд, перераб. и доп. Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing: монография. – М.: ГИ «Центральная типография». – 277 с.;
6. Панагиотополос Д.П. (2014) Перспективы развития спортивного права и Lex Sportiva / Перевод с англ. О.А. Шевченко, Е.А. Кашехлева // Актуальные проблемы российского права. – №10(47). – С. 2187-2196;
7. Алексеев С.В. (2015) Международное спортивное право: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям 030500 «Юриспруденция» и 032101 «Физическая культура и спорт» / Под ред. Крашенинникова П.В. – М.: ЮНИТИ-ДАНА. – 895 с.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOTSIOLOGIYASI